IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 4, ISSUE 2, 2023

Muhammad Yusuf she’rlarida distant holatdagi takrorning aynan qo‘llanishi

Dilfuza Shadiyeva

“International school of finance technology and science” instituti o‘qituvchisi filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Muhammad Yusuf she’rlarida distant holatdagi takrorning aynan qo‘llanishi va ularning she’rdagi badiiy vazifasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar

distant holatdagi takror, tarse’, anafora, epifora, tovushlarning uyg‘unlashishi.

Muhammad Yusuf she’rlarida distant holatdagi takror juda ko‘p qo‘llanadi. Chunki takrorning bu ko‘rinishi boshqa badiiy vositalar kabi she’rga alohida ohang bag‘ishlaydi. Shoir asarlaridagi distant holatdagi takror aynan hamda o‘zgargan shaklda qo‘llangan. Shuningdek, takrorning qo‘llanish soni ham she’rda ma’lum bir badiiy maqsad bilan yuzaga kelgan.

Dastlabki misolda undalmani takror qo‘llashdan tashqari, sinonimik imkoniyatdan ham unumli foydalanilganligini kuzatish mumkin:

Muhabbat, sen *chiroyli,*

Muhabbat, sen *go‘zalsan*. (“Muhabbat”)

Yuqoridagi fikrlarimizning mantiqiy davomi sifatida bu misralardagi takror holda qo‘llangan *muhabbat* undalmasi takroriy kelgan *sen* olmoshining ma’nosini izohlaydi va aniqlashtiradi. Shu bilan birga, *muhabbat* undalmasi butun gap mazmuni bilan aloqadordir.[1]

Keyingi ikki misrada ozgina bo‘lsa-da, darajalanish mavjud. Ya’ni *chiroyli – go‘zal* sinonimik qatorida chiroylilik darajasi keyingi so‘zda birmuncha yuqoriroqdir. Takror esa fikr rivojiga turtki

[1] O‘zbek tili grammatikasi. Ikki tomlik.-Toshkent: Fan, 1976. T. II. B. 260

VOLUME 4, ISSUE 2, 2023

bo‘lgan. Shu bilan birga, ushbu o‘rinda semantik jihatdan takrorlanish mavjud, deb hisoblash mumkin.

Sabolar ***qaytgusi*** *baxmal* ***bog‘larga,***

Navolar ***qaytgusi*** *mahtal* ***bog‘larga.*** (“Usmon Nosir”)

Bu o‘rindagi takror haqida quyidagi fikrlarni bildirish mumkin:

–*qaytgusi* so‘zining takrorlanishi ikki gap egasini (*sabolar, navolar*) alohida ta’kidlagan. Aniqlovchi bo‘lib kelgan *baxmal, mahtal* so‘zlari *bog‘larga* so‘zining takror qo‘llanishini taqozo etgan. Demak, fikrning asosiy maqsadi qanday **bog‘larga** nimalar **qaytishini** ko‘rsatishdir;

– *sabolar – navolar*, *baxmal – mahtal* so‘zlari orqali tarse’ yuzaga keltirilgan;

– bo‘g‘inlarning ochiq-yopiqligi, bir xil unlilarning saqlanishiga alohida ahamiyat berilgan. Bu esa “badiiy nutqqa intonatsion butunlik, ohangdorlik va emotsional-ekspressivlik bag‘ishlash maqsadida qo‘llanadigan fonetik usullardan biri”[2] assonansni yuzaga keltirgan.

Bir kechaning izohi –

Yarmi *quvonch,* ***yarmi*** *g‘am.* (“Uch o‘g‘il va bir qiz qissasi”)

Birinchi misrada *bir kecha* birikmasi beriladi va butunning ikki bo‘lakka bo‘linishi hamda ushbu ikki bo‘lakning bir-biriga zidlantirilishi *yarmi* so‘zining takrori bilan birga *quvonch, g‘am* so‘zlari orqali amalga oshiriladi: ***yarmi*** *quvonch,* ***yarmi*** *g‘am.* Bunday takrorlar odatda grammatik yoki mantiqiy jihatdan teng bo‘lgan bir necha subyekt yoki obyektni ifodalaydi. Masalan:

Bir qo‘lda *belanchak,* ***bir qo‘lda*** *Qur’on,*
Bir yelkada ketmon, birida iymon. (“Qiyosi yo‘q aslo...”)

“Do‘ppi” she’rida esa takrorning yana bir qirrasi namoyon bo‘ladi:

Rost ***do‘ppilar,*** *Chust* ***do‘ppilar,***
Yolg‘on ***do‘ppilar,*** *Anjon* ***do‘ppilar,***

[2] Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari.– Toshkent: Fan, 2007.– B. 46

VOLUME 4, ISSUE 2, 2023

Kinolarda qolgan *Munchoqdek Marg‘ilon* ***do‘ppilar.***

do‘ppilar.

Takrorlanuvchi *do‘ppi* so‘zidan oldin kelgan so‘zlarda birinchi va to‘rtinchi (*ro**st** – Chu**st***); ikkinchi, beshinchi hamda oltinchi misralarda (*yolg‘**on**–Anj**on** – Marg‘il**on***) tovushlar birikmasining takrorlanishi hisobiga qisman qofiyalanish yuzaga keladi, bu esa she’rning ravon va yengil o‘qilishini ta’minlaydi.

Vatan gar dilga jo bo‘lsa,

Ne istar u bajo bo‘lsa,

Kim bilsin,

***Kim bilsin,** agar,*

Mening jonim fido bo‘lsa,

Tirik yurgaymidi hozir,

***Usmon Nosir, Usmon Nosir**...*

(“Qora quyosh”)

Yuqoridagi takror ritorik so‘roq ohangini yanada oshiradi. Bizningcha, Usmon Nosir nomining takrori qatag‘onlik davri qurbonlari bo‘lgan barcha qalam sohiblari timsolining umumlashmasi o‘rnida kelgan bo‘lishi ham mumkin.

She’riyatda misralar takrori juda ko‘p qo‘llanadi. Masalan, bir misraning o‘zi bandning boshida va oxirida, bandning dastlabki yoki keyingi ikki misrasida qo‘llangan bo‘lishi mumkin. Bu Muhammad Yusuf she’rlariga ham xos xususiyat:

Kuzda go‘zal bizning Farg‘ona,

***Qiyosi yo‘q jannat** maskandir.*

Uyimizni sog‘indim, ona,

Bog‘imizda behi pishgandir

Shahardagi o‘g‘ilning onasiga maktubi ana shunday boshlanadi. She’r davomida o‘g‘il

VOLUME 4, ISSUE 2, 2023

qishloq hayotini sog‘inganligini bayon etadi va so‘nggi band dastlabki ikki misra takrori bilan boshlanadi. Faqat *maskan* so‘zi *Vatan* ma’nodoshi bilan almashtiriladi:

Kuzda go‘zal bizning Farg‘ona,

Qiyosi yo‘q jannat *Vatandir*.

Xat yozishdan asl maqsad ne ekanligi esa so‘nggi misrada namoyon bo‘ladi:

Xatim tamom. Aytgandek, ona,

Zebi erga tegib ketgandir?!

She’r shuning uchun ham “Muddao” deb nomlangan. Takror esa gapni “aylantirib”, maqsadga ko‘chish uchun bir vosita bo‘lgan.

Keyingi keltirilgan parchadagi takror o‘ziga xos ohang bilan, ya’ni takror orasida qisqa to‘xtash bilan o‘qilishi emfatik urg‘uning aynan ana shu takrorlarga tushishini ta’minlaydi.

Beshiklarni quchib aylanadi Yer,

Oqar yuzlaridan marjon-marjon ter.

Nima qilsak ekan atomni,

Nima qilsak ekan atomni*?..*(“Savol”)

Ushbu o‘rinda ikki holat – harakat davomiyligi va so‘roq ohangining uyg‘unlashuvi ko‘zga tashlanadi. Keyingi ikki misradagi takror savolga javob izlash ham uzoq davom etayotgan jarayonni ifodalashga qaratilgan. Shu o‘rinda ushbu misralarga hamohang bo‘lgan E.Vohidovning “Inson” qasidasidagi quyidagi parchani keltirishni lozim topdik:

Zarrani ijod etib,

Dahshat balo bunyod etib,

Oqibatni yod etib

Hayron o‘zing, hayron o‘zing.[3]

[3] Vohidov E. Umrim daryosi.– Toshkent: Sharq, 2001. – B. 7.

VOLUME 4, ISSUE 2, 2023

Ko‘rinadiki, Erkin Vohidov ham aynan takror orqali yuqoridagi fikrga javob izlashga harakat qiladi. Demak, ikkala parcha bir-birini mantiqiy to‘ldiradi, davom ettiradi.

Uch og‘ayni akam bor:
***Birin oti**– Jasorat,*
***Birin oti** – Sadoqat,*
***Birin oti** – Saodat*. (“Uch og‘ayni botirlar”)

Ushbu parchada anafora umumiy mazmunga ko‘ra bir necha subyektni ifo-dalagan. So‘z birikmasining anaforik qo‘llanishi orqali ta’kidlashdan ko‘ra sanab ko‘rsatish, taqqoslash ohangi ustunroq ekanligi anglashiladi.

***Bir** daryoga ulanmagan irmoqlar,*
***Bir** qiz sochin silamagan barmoqlar,*
***Bir** tuproqqa to‘kilgan qizg‘aldoqlar,*
Bevaqt qurbon bo‘lib ketgan o‘g‘lonlar. (“O‘g‘lonlar”)

Yuqoridagi takror *bir* so‘zining ko‘p ma’noliligi bilan bog‘liq.[4] Dastlabki misrada *bir* so‘zi birlashish ma’nosini berish uchun qo‘llangan bo‘lsa, keyingi misrada hech bo‘lmaganda yigitlik nashidasini sura olmaganlikni ta’kidlash uchun, uchinchi misrada esa so‘nggi makon umumiyligini ko‘rsatish uchun qo‘llangan. Shu o‘rinda quyidagi fikrni keltiris o‘rinlidir: “Poeziyada ma’lum tovush, so‘z yoki birikma takrorlanar ekan, bu so‘z va birikmalarga vazifalar berilganga o‘xshaydi, tasvirlanayotgan obyekt xuddi shu so‘zlar vositasida baholanayotganday tuyuladi”.[5]

*Derlar: jon sog‘ bo‘lsa, jahon **topilgay**,*
*Bir parcha er, parcha osmon **topilgay**.*
*Lekin qayda sendek jonon **topilgay...*** (“Ketar bo‘ldim”)

Ushbu parchada maqol ham qo‘llanganligi uchun maqollar tahlil etilgan bo‘limda fikr-mulohazalar bildirilgan. Endi diqqatni misralar oxiridagi takrorga qaratsak. *Topilgay* so‘zi har

[4] O‘TIL I. B. 116-117
[5] Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent: Fan, 1977. – B. 128

VOLUME 4, ISSUE 2, 2023

misraning oxirida kesim vazifasida kelib, har gal yangi ega bilan (*jahon* ***topilgay,*** *osmon* ***topilgay,*** *jonon* ***topilgay***) bog‘lanmoqda. Demak, mantiqiy urg‘u aynan shu so‘zga berilmoqda. Dastlabki ikki misradagi *topilgay* harakatning bo‘lishi muqarrarligini anglatyapti, shuning uchun u bo‘lishli shaklda. Uchinchi misrada *lekin* zidlov bog‘lovchisi hamda *qayda* so‘roq olmoshining qo‘llanishi takrorlanayotgan so‘zni aks ma’noda ifodalaydi (ya’ni sendek jonon topilmagay). Ko‘ryapmizki, har bir takror o‘ziga xos qo‘llangani holda o‘ziga mos ma’no anglatadi. Buni “Hayot bu...”, “Ona, meni nega tug‘ding...”, “Osmonning oxiri”, “Ketar bo‘ldim” kabi ko‘pgina she’rlarida ham yaqqol ko‘rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikki tomlik. - M.: Rus tili , 1981
2. O‘zbek tili grammatikasi. Ikki tomlik.-Toshkent: Fan, 1976
3. Muhammad Yusuf. Saylanma.– Toshkent: Sharq, 2004
4. Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent: Fan, 1977
5. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari.– Toshkent: Fan, 2007
6. Vohidov E. Umrim daryosi.– Toshkent: Sharq, 2001.

WORDLY KNOWLEDGE